

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Kengashi yig'ilishining 2-Bayonnomasidan  
KO'CHIRMA**

2024-yil 10-oktyabr

Toshkent shahri

**Qatnashdilar:** 102 nafar Kengash a'zosi.  
**Qatnashmadilar:** 5 nafar Kengash a'zosi.

**KUN TARTIBI:**

**7.13. Turli masalalar:** "O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining byudjet va byudjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash TARTIBI"ni tasdiqlash to'g'risida.

**ESHITILDI:** Universitet Kengashi raisi, universitet rektori, professor I.Tuxtasinov universitet Kengashi muhokamasiga "O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining byudjet va byudjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash TARTIBI"ni tasdiqlash masalasi kiritilganligi va bu bo'yicha axborot berish uchun O'zDJTU Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Sadiyev Valijon Alijonovichga so'z berdi.

**SO'ZGA CHIQDI:** O'zDJTU Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor V.Sadiyev "O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining byudjet va byudjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash TARTIBI"ning umumiyligini qoidalari, moddiy rag'batlanishga tavsiya etilayotgan talabalarga qo'yiladigan talablar, Moddiy rag'batlanishga da'vogar talabalarning hujjatlarini qabul qilish tartibi, Moddiy rag'batlanishga tavsiya etilgan talabalarning asosiy ko'rsatkichlarini baholash mezonlari, moddiy rag'batlantirishga tavsiya etilayotgan talabalarni saralash talablari haqida batafsil ma'lumot berdi hamda mazkur Tartibni tasdiqlab berish taklifini kiritdi (tegishli Tartib ilova etiladi, 1-ilova).

Kengash yig'ilishi bir ovozdan ushbu taklifni ma'qulladi.

**QAROR QILADI:**

1. O'zDJTU Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor V.Sadiyevning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining byudjet va byudjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash TARTIBI" 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**Kengash raisi**



**I.Tuxtasinov**

**Kengash kotibi**

**S.Ataxanova**

**“TASDIQLAYMAN”**

O‘zDJTU rektori, Kengashi raisi,  
professor L.Tuxtasinov



10-oktyabr, 2024-yil  
2-sonli universitet Kengashi yig‘ilishi  
7.13-masalaga 1-ilova

**O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining byudjet va byudjetdan  
tashqari to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobidan shakllantiriladigan  
Talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan talabalarni  
moddiy qo‘llab-quvvatlash  
TARTIBI**

Mazkur tartib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi “Oliy ta’lim muassasalari talabalariga to‘lanadigan stipendiyalar miqdorlarini belgilash hamda stipendiyalar tayinlash va to‘lash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 59-sun qaroriga hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 8-fevraldagi 97-sun buyrug‘iga muvofiq O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining (keyingi o‘rinlarda – Universitet) o‘quv semestri yakuni bo‘yicha fanlarni a’lo va yaxshi baholarga o‘zlashtirayotgan, iqtidorli, jamoat ishlarida faol va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan talabalarini moddiy qo‘llab-quvvatlash tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Tartib qoidalar Universitetning bakalavriat va magistratura bosqichlarida davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida ta’limning kunduzgi shaklida (kechki, ikkinchi mutaxassislik, xalqaro fakultet va xorijiy talabalar bundan mustasno) tahsil olayotgan barcha talabalariga nisbatan qo‘llaniladi.

2. Mazkur Tartib talabalariga muvofiq Universitet rektorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalarni moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha Ishchi guruh (keyingi o‘rinda – Ishchi guruh) tuziladi hamda Ishchi guruhning tavsiya qarorlariga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan Talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan talabalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash amalga oshiriladi.

3. Moddiy rag‘batlantirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:  
- tegishli o‘quv semestri yakuni bo‘yicha barcha fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi faqat “a’lo” baho (reyting ko‘rsatkichi - 86 ball va undan yuqori)

bo‘lgan to‘lov-kontrakt asosida ta’lim olayotgan (stipendiyali yoki stipendiyasiz shaklda ekanligidan qat’iy nazar) talabalarga stipendiyaning bazaviy miqdoriga nisbatan 20 foiz miqdorida ustamalar belgilash orqali;

- tegishli o‘quv semestri yakuni bo‘yicha barcha fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi “a’lo” hamda “a’lo va yaxshi” (fanlarning 30 foizgacha yaxshi baho tashkil etganda) bo‘lgan, alohida qobiliyat va iqtidor egasi, ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy va jamoat ishlarida faol bo‘lgan davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalarga belgilangan stipendiyalar miqdoriga nisbatan 50 foizgacha miqdorda ustamalar belgilash orqali;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalarga 50 foizgacha miqdorda ustamalar belgilash orqali;

- davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan alohida iqtidorga ega, xalqaro, respublika va oliv ta’lim muassasasi miqyosida o‘tkazilgan fan olimpiadalari va sport musobaqalarida g‘olib bo‘lgan talabalarga bazaviy stipendiyaga nisbatan 10 baravargacha miqdorda bo‘lgan bir martalik rag‘batlantirish belgilash orqali.

4. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining qarori asosida qo‘srimcha to‘lov-kontrakt asosida bakalavriat bosqichiga o‘qishga qabul qilingan talabalar qabul qilingan o‘quv yilining ikkinchi semestridan boshlab moddiy qo’llab-quvvatlanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

5. Tegishli o‘quv semestri yakuni bo‘yicha barcha fanlardan o‘zlashtirish ko‘rsatkichi “a’lo” hamda “a’lo va yaxshi” (fanlarning 30 foizgacha yaxshi baho tashkil etganda) bo‘lgan, alohida qobiliyat va iqtidorga ega, jamoat ishlarida faol va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan talabalarni moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha ishlar Ishchi guruh tomonidan zaruriyatdan kelib chiqib belgilangan vaqtarda amalga oshiriladi.

6. Mazkur Tartib qoidalar faqatgina tegishli bitta semestr mobaynida tadbiq qilinadi.

## **2-bob. Moddiy rag‘batlanishga tavsiya etilayotgan talabalarga qo‘yiladigan talablar**

7. Moddiy rag‘batlanishga tavsiya etilayotgan talabaning o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi o‘rganilayotgan davrda (birinchi bosqich talabalari uchun o‘quv yilining birinchi semestr natijalari bundan mustasno) o‘zlashtirish ko‘rsatkichi “a’lo” hamda “a’lo va yaxshi” (fanlarning 30% gacha yaxshi baho tashkil etganda) baholarga ega, iqtidorli, ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy va jamoat ishlarida faol, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalardan iborat bo‘lishi lozim.

8. Universitetda tashkil etilgan Ishchi guruh talabalarni moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqishda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarni inobatga oladi:

- tegishli o'quv semestri yakuniga ko'ra barcha fanlar bo'yicha o'zlatirish ko'rsatkichi "a'lo" hamda "a'lo va yaxshi" (fanlarning 30 foizgacha yaxshi baho tashkil etganda) bo'lishi;
- rag'batlantiriladigan talabalar ro'yxati Fakultet kengashi bayonnomasiga asosan taqdim etilishi;
- Ishchi guruhning xulosasiga ko'ra bazaviy stipendiyaga nisbatan 5 baravargacha miqdorda bo'lgan rag'batlantirishni talabalarning quyidagi ko'rsatkichlarga asosan belgilashi, alohida hollarda yuqori turuvchi vazirlik va idoralardan keladigan topshiriqlarga muvofiq boshqa miqdorlarda belgilanishi mumkinligi, bunda,
- Yoshlar ittifoqi BT koordinatorlari va fakultet yetakchilari;
- "Qalqon" jamoasi a'zolari;
- fakultet matbuot kotiblari;
- jamoatchilik ishlaridagi faoliyati, turli loyihalarda faolligi hamda tashabbuskorligi;
- talabaning sport tadbirlarida faol ishtiroki;
- 5 muhim tashabbus doirasida o'tkazilgan tadbirlarda faol ishtiroki;
- universitet tashabbusi bilan o'tkazilayotgan ko'rik tanlovlар g'olib va sovrindorlari;
- xalqaro va milliy sertifikatga ega bo'lgan jamoatchilik asosida to'garaklarda dars o'tish uchun jalb etilgan iqtidorli talabalar;
- talabaning universitet faoliyatidagi ma'naviy-ma'rifiy, jamoat ishlarida va turli yo'nalishlardagi faol ishtiroki;
- talabaning tashkilotchilik va yetakchilik qobiliyatları;
- talabaning ilmiy va ijodiy faoliyati natijalari;
- talabaning ijtimoiy himoyaga muhtojligi;
- talabaning universitetda belgilangan ichki tartib-qoidalarga riosa etishi (talabaning universitetda belgilangan ichki tartib-qoidalalariga riosa etmaganligi yuzasidan faqat universitet rektori yoki fakultet dekani tomonidan berilgan xayfsan moddiy rag'batlantirishni rad etish uchun asos sifatida qabul qilinadi) kabi omillarga alohida e'tibor qaratadi.

### **3-bob. Moddiy rag'batlanishga da'vogar talabalarning xujjatlarini qabul qilish tartibi**

9. Moddiy rag'batlanishga da'vogar talaba tyegishli o'quv semestri yakuni bo'yicha o'z fakulteti dekanatiga qo'yidagi hujjatlarni taqdim etishi zarur:

- universitet rektori nomiga ariza;
- moddiy qo'llab-quvvatlanishga da'vogar talabaning anketasi;

- “universitetda moddiy rag‘batlantirishga da’vogar talabaning o‘quv semestri yakuni bo‘yicha faoliyatini baholash mezonlari”ga muvofiq to‘ldirilgan jadval;
- “universitetda moddiy rag‘batlantirishga da’vogar talabaning o‘quv semestri yakuni bo‘yicha faoliyatini baholash mezonlari”da belgilangan barcha yo‘nalishlarda berilgan ustamani asoslovchi xujjatlarning tasdiqlangan nushalari;
- Yoshlar ittifoqi universitet BT yetakchisining tavsiyanomasi;
- Fakultet dekanining tavsifnomasi;
- alohida hollarda yuqori turuvchi vazirlik va idoralardan keladigan topshiriqlar.

10. Moddiy rag‘batlanishga da’vogar talabaning arizasi Ishchi guruh tomonidan ko‘rib chiqilishi uchun fakultet dekani yuqoridagi sanab o‘tilgan xujjatlarni taqdim etishi zarur.

#### **4-bob. Moddiy rag‘batlanishga tavsiya etilgan talabalarning asosiy ko‘rsatkichlarini baholash mezonlari**

11. Tavsiya etilayotgan talabalarning asosiy ko‘rsatkichlarini baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

- 11.1. Talabaning tyegishli o‘quv semestri yakuni bo‘yicha barcha fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi – asosiy mezon deb hisoblanadi:
  - barcha fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi “a’lo” (100%) 20 foiz ustama;
  - barcha fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi “a’lo va yaxshi” (fanlarning 30% gacha yaxshi baho tashkil etganda) - talabaga rag‘batlantish konkursida ishtiroy etish huquqini beradi.

11.2. Ma’naviy-ma’rifiy, jamoat ishlarida va turli faoliyatlaridagi faol ishtiroyi:

- Prezidentimiz tomonidan tavsiya etilgan 5 ta muhim tashabbusning yo‘nalishlari bo‘yicha universitet, maktab va mahallalardagi tadbirlarda faol ishtiroyi uchun - 10 foiz ustama (semestr davomida);
- Universitetda ma’naviyat kuni tadbirlarini mazmunli tashkil etishda faol ishtiroyi uchun - 10 foiz ustama (semestr davomida);
- “Yagonasan, muqaddas Vatan!”, “Talabalar teatr studiyasi”, “Zakovat”, “QVZ”, “Tafakkur sinovlari”, “Zukko kitobxon” tanlovlarida faol ishtiroyi uchun - 10 foiz ustama (semestr davomida);
- ryespublika va xalqaro miqyosidagi turli ko‘rik-tanlovlarda faol ishtiroyi uchun - 10 foiz ustama (semestr davomida);
- OAVdagi chiqishlari uchun - 10 foiz ustama (semestr davomida);
- Yoshlar ittifoqidagi rahbarlik faoliyati uchun (semestr davomida):
- Yetakchi – 50 foiz ustama;

- Yetakchi o‘rbinosari – 50 foiz ustama;
- Kotib (Matbuot kotibi) – 40 foiz ustama.
- Yoshlar ittifoqidagi fakultet yetakchisi sifatida faoliyati uchun 30 foiz ustama (semestr davomida).

**11.3. Talabaning ilmiy va ijodiy faoliyati natijalari:**

- Respublika miqyosidagi anjumanlarda 1 maqola yoki 2 tezislarni yakka mualliflikda chop ettirgan bo‘lsa 10 foiz ustama (semestr davomida);
- Xalqaro miqyosidagi anjumanlarda 2 maqola va 2 tezislar chop ettirgan bo‘lsa 20 foiz ustama (semestr davomida);
- Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yhatiga kiruvchi mahalliy jurnallarida 2 maqola chop ettirgan bo‘lsa 30 foiz ustama (semestr davomida);
- Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tan olingan xorijiy jurnallarda 2 maqola chop ettirgan bo‘lsa 40 foiz ustama (semestr davomida);
- “Scopus” va “Web of Science” xalqaro ilmiy bazalariga kiruvchi ilmiy jurnallarda 1 maqola chop ettirgan bo‘lsa 50 foiz ustama (semestr davomida);
- Ixtiro yoki innovatsiyalar uchun mualliflik patenti olgan, Startap loyihalari tanlovi g‘olib bo‘lsa 50 foiz ustama (semestr davomida);

**11.4. Xalqaro, respublika miqyosidagi yakka va jamoaviy tartibda o‘tkazilgan ko‘rik tanlov va konkurslarda sovrinli o‘rin olgan talabalar:**

- |   |  |
|---|--|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>- Yakka tartibda:</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Jamoaviy tartibda:</li> </ul> |
| 1-o‘rin uchun – 50 foiz ustama                                      | 1-o‘rin uchun – 30 foiz ustama   |

**11.5. Ijtimoiy himoyaga muhtojligi:**

- Otasining I guruh nogironligi mavjud bo‘lsa - 30 foiz ustama (semestr davomida).

**11.6. Xalqaro va respublika miqyosidagi o‘tkazilgan fan olimpiadalari va sport musobaqalarida g‘olib bo‘lgan talabalarga bir martalik rag‘batlantirish miqdori:**

- |   |  |
|---|--|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>- Yakka tartibda:</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Jamoaviy tartibda:</li> </ul> |
| 1-o‘rin uchun – 10 baravar ustama                                   | 1-o‘rin uchun – 6 baravar ustama                                       |

12. Agar talabaning tyegishli o‘quv semestri yakuni bo‘yicha barcha fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi belgilangan “a’lo va yaxshi” (fanlarning 30% gacha yaxshi baho tashkil etganda) ko‘rsatkichidan past bo‘lsa (ijtimoiy himoyaga hamda bir martalik rag‘batlantirishga loyiq yoki moddiy yordam to‘loviga muhtoj talabalar bundan mustasno) ushbu talabaning arizasi ko‘rib chiqilmaydi.

13. Ushbu Tartibning 11.1. bandida belgilangan talabaning tyegishli o‘quv semestri yakuni bo‘yicha barcha fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga bo‘lgan talablar e’tiborga olinmaydigan hollar:

- Ijtimoiy himoyaga muhtojligi (kar-soqov va ko‘zi ojiz talaba-yoshlar, “Mehribonlik uylari”da tarbiyalanuvchi talaba-yoshlar, nogironligi mavjud talaba-yoshlar, otasining I guruh nogironligi mavjud);

- talabalarga bir martalik rag‘batlantirish yoki moddiy yordam to‘lovini amalga oshirish uchun asos bo‘lgan alohida hollar.

14. Alohida hollarda bir martalik moddiy qo‘llab-quvvatlanish yoki moddiy yordamga da‘vogar talaba bir vaqtning o‘zida foizlik ustamaga da‘vogarlik qila ololmaydi hamda foizlik ustamaga da‘vogar talaba bir vaqtning o‘zida alohida hollarda bir martalik moddiy qo‘llab-quvvatlanish yoki moddiy yordamga da‘vogarlik qila ololmaydi.

15. Talabalarga tavsiya etiladigan jami ustamalar yig‘indisi 50 foizdan oshmasligi e’tiborga olinadi.

#### **4-bob. Moddiy rag‘batlantirishga tavsiya etilayotgan talabalarni saralash**

16. Har o‘quv semestri yakunlangan kundan boshlab yangi o‘quv semestri boshlanadigan kundan kechikmagan holda Ishchi guruh universitetda tahsil olayotgan talabalarni moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha o‘z faoliyatini olib borishi lozim.

17. Mazkur muddat oralig‘ida barcha guruhlardan dekanatlar tomonidan Ishchi guruhga moddiy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatilishini so‘rab talabalar ro‘yhati va talabaning avvalgi o‘quv semestri davomida faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlar jildi ilova qilingan holda qabul qilinadi.

18. Keyingi o‘quv semestri boshlangunga qadar Ishchi guruh tavsiya etilayotgan talabalarga tegishli ko‘rsatkichlarni “Moddiy rag‘batlantirishga da‘vogar talabaning faoliyatini baholash jadvali”ga muvofiq ko‘rib chiqadi hamda moddiy rag‘batlantirish uchun tavsiya etish bo‘yicha qaror qabul qiladi.

19. Ishchi guruh talabani moddiy rag‘batlantirishga tavsiya etish yoki rad etish huquqiga ega.

Tavsiya etilayotgan talabani moddiy rag‘batlantirishi rad etilgan hollarda, Ishchi guruhning tegishli majlisi bayonida uning sabablari ko‘rsatiladi.

20. Ishchi guruhning moddiy qo‘llab-quvvatlashga talabalarni tavsiya etish to‘g‘risidagi qarori joriy o‘quv semestrida haqiqiy hisoblanadi.

21. Ishchi guruhning tegishli majlisi bayoni nushalari uch ish kuni mobaynida universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi va tegishli bo‘limlar (Kadrlar bo‘limi, Dekanatlar, Buxgalteriya va boshqalar) ga taqdim etiladi.

Unda ustamalar belgilash va moddiy yordam ko‘rsatishga tavsiya etilgan talabalarning ro‘yxati ustama foizlari va miqdori ko‘rsatilgan holda ilova qilinadi.

Mazkur Tartib asosida taqdim etilgan barcha hujjatlarning to‘g‘riliqi va haqiqiyligi uchun universitet fakultetlari dekanlari, Yoshlar ittifoqi universitet BT yetakchisi hamda Ishchi guruh javobgar hisoblanadi.

22. Ishchi guruh tomonidan talabalarni moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risidagi qabul qilingan qarorni inobatga olingan holda o‘quv semestri yakuniga ko‘ra ustama tayinlash to‘g‘risidagi universitet rektorining tegishli buyrug‘i rasmiylashtiriladi va o‘quv semestrining birinchi oyidan boshlab ustama to‘lovi hisoblab boriladi.

23. Moddiy rag‘batlantirishga da‘vogar talabaning tegishli semestr uchun topshirgan anketa va unga ilova qilingan xujjatlar jildi keyingi semestr yakunlari bo‘icha rag‘batlantirishga da‘vogarlik qiladigan holda rag‘batlantirish uchun asos deb xisoblanmaydi va mazkur tartib ushbu holda tadbiq qilinmaydi.

## **5-bob. Yakuniy qoidalar**

24. Mazkur Tartib qoidalariga rioya etilishi, shuningdek, universitet tomonidan moddiy rag‘batlantirilgan talabalarning o‘quv jarayonidagi ishtiroti, o‘zlashtirishi, intizomi va jamoat ishlaridagi ishtiroti ustidan nazorat qilish universitet fakultetlar dekanlari va Yoshlar ittifoqi universitet BT yetakchisi zimmasiga yuklatiladi.